

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH

Xasanova Shaxzoda

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali,
«Mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment» kafedrası mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com ORCID: 0009-0000-4452-0073

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22246842>

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligi nisbatan past bo‘lishining tizimli sabablari va bu muammoni bartaraf etishda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning strategik o‘rni tahlil qilinadi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida so‘nggi o‘n yillikda ayollar ishsizligining erkaklarnikiga nisbatan ancha tezroq o‘sib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tanqidiy tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, so‘ngra ushbu mexanizmlarni gender tengligini ta'minlashning samarali vositasi sifatida takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, mehnat bozori, ish bilan bandlik, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya, inson kapitali.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация. В тезисах системно анализируются причины низкой экономической активности женщин на рынке труда Узбекистана и роль развития женского предпринимательства в преодолении данной проблемы. На основе официальных статистических данных показано, что за последнее десятилетие безработица среди женщин росла значительно быстрее, чем среди мужчин. Проведён критический анализ действующих механизмов государственной поддержки предпринимательства, выявлены их сильные и слабые стороны, предложены практические рекомендации по их совершенствованию как стратегического инструмента обеспечения гендерного равенства.

Ключевые слова: гендерное равенство, женское предпринимательство, рынок труда, занятость, социально-экономическая трансформация, человеческий капитал.

ENSURING GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN'S LABOR MARKET THROUGH THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP

Abstract. This thesis provides a systematic examination of the structural reasons behind women's limited economic activity in Uzbekistan's labor market and the role of women's entrepreneurship development in addressing this imbalance. Official statistics show that female unemployment has grown considerably faster than male unemployment over the past decade. Existing state mechanisms supporting entrepreneurship are critically reviewed to identify their strengths and shortcomings, and practical recommendations are proposed for strengthening them as a strategic tool for achieving gender equality in labor relations.

Keywords: gender equality, women's entrepreneurship, labor market, employment, socio-economic transformation, human capital.

Kirish

Jahon amaliyotida ayollarning ish bilan bandligi nafaqat oilaviy daromad manbai, balki mamlakat iqtisodiy o‘rinishining muhim resursi hisoblanadi. Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti nazariyasida ayollarning mehnat bozoridagi faolligi inson kapitalidan foydalanish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston mehnat bozorida esa ayollarning iqtisodiy faolligi hamon erkaklarnikidan

sezilarli darajada past bo‘lib qolmoqda; bu holat mamlakat inson kapitalidan to‘liq foydalanilmayotganidan dalolat beradi [1].

Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, 2013–2023-yillar mobaynida mamlakatdagi umumiy ishsizlar soni 14 foizga ortgan bo‘lsa, xotin-qizlar orasidagi ishsizlik shu davrda 24,5 foizga, ya'ni deyarli ikki barobar tezroq o‘sgan; bu ko‘rsatkich erkaklar ishsizligining o‘sish sur'atidan (2,3 foiz) sezilarli darajada yuqori [1]. Ushbu tendentsiya tasodifiy emas - u tizimli xarakterga ega bo‘lib, mehnat bozoridagi gender tengsizlikning chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi va ayollarning mehnat bozoridagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada dolzarblashtiradi.

Muallifning fikricha, bu nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri - ayollarning uy xo‘jaligi va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq «ikki taraflama mehnat yuki»dir. Ushbu yuk ularning kasbiy salohiyatidan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qiladi va ko‘pincha ularni norasmiy yoki qisman bandlik shakllariga yo‘naltiradi [2]. Shu bilan birga, ayollarning ta'lim darajasi erkaklarnikidan past emas, biroq ular mehnat munosabatlarida gender tengsizligiga duch kelishadi; natijada jamiyat tomonidan sarflangan ta'lim investitsiyalari to‘liq iqtisodiy samara bermay qolmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik bazasi izchil shakllantirilmoqda. Xususan, «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-81-son Farmoni, «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-146-son Qarori hamda 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish Strategiyasi ushbu yo‘nalishdagi asosiy strategik hujjatlar hisoblanadi [3]. Ushbu hujjatlar doirasida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishni istagan ayollarga ro‘yxatdan o‘tishni soddalashtirish, kredit sug‘urtasi va boshlang‘ich subsidiyalar ko‘rinishida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan [3].

Ushbu chora-tadbirlarni dissertatsiya doirasida ishlab chiqilayotgan nazariy yondashuv - inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasi nazariyalari nuqtai nazaridan baholasak, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham asoslangan xulosa bo‘lib chiqadi. Tadbirkorlik ayollarga ish vaqtini moslashtirish, oilaviy majburiyatlar bilan kasbiy faoliyatni muvozanatlashtirish imkonini beradi, shu bois u ayollarning mehnat bozoridagi barqaror ishtirokini ta'minlashning muqobil mexanizmiga aylanishi mumkin.

Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi: tahlil

Amaldagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyati moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan, biroq ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy jihatlari - bolalarni parvarish qilish muassasalariga kirish imkoniyati, moslashuvchan ish jadvali, kasbiy maslahat va mentorlik xizmatlari - hali yetarlicha e'tibor qaratilmagan sohalar bo‘lib qolmoqda [4].

Bundan tashqari, qo‘llab-quvvatlash dasturlarining hududiy taqsimoti notekis bo‘lib, qishloq joylarida yashovchi ayollar uchun bunday imkoniyatlar shahar aholisiga nisbatan ancha cheklangan. Bu holat mintaqaviy nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirish xavfini tug‘diradi va dasturlarni ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Shuningdek, mavjud statistik hisobot tizimida ayollar tadbirkorligining sifat ko‘rsatkichlari - biznesning barqarorligi, o‘rtacha daromadlilik darajasi, ish o‘rinlari yaratish salohiyati - bo‘yicha ma'lumotlar yetarlicha tizimlashtirilmagan, bu esa qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning haqiqiy samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tabaqalashtirish, xususan, qishloq joylarida yashovchi ayollar uchun qo‘shimcha imtiyozli shartlar joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, masofaviy va moslashuvchan ish shakllarini (frilanser faoliyati, uyda ishlash, qisman bandlik) rivojlantirish ayollarning ikki taraflama mehnat yukini yengillashtirishga xizmat qiladi va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirishga ko‘maklashadi.

Uchinchidan, ayollar tadbirkorligi samaradorligini muntazam kuzatib borish uchun yagona statistik monitoring mexanizmini joriy etish, shuningdek, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda kasbiy maslahat va mentorlik xizmatlarini ham dastur tarkibiga kiritish zarur.

To‘rtinchidan, bolalarni parvarish qilish infratuzilmasini (bolalar bog'chalari, kunduzgi parvarish markazlari) kengaytirish ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar majmuasi O'zbekiston mehnat bozorida gender tenglikni ta'minlashning uzoq muddatli strategiyasini tashkil etadi va inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirishga, natijada mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabixojayeva D.S. O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faoliyatini oshirish // Science Technology & Digital Finance.2025. Vol. 3, Issue 4. B. 5–9.

2. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2012. B. 129–140.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni; PQ-146-son Qarori; 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko'maklashish Strategiyasi.

4. Irmatova A.B. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent, 2021. B. 17–18.